

TURKIYA NAVOIYSHUNOSLIGI HAQIDAGI TADQIQOTLAR

Cho'lliyeva Latofat Sevindikovna

ToshDO'TAU doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15788853>

Annotatsiya. Turkiyada Alisher Navoiy haqidagi tadqiqotlar faol ravishda amalga oshirib kelinmoqda. O'zbek adabiyotshunoslari bu tadqiqotlarni o'rganib, tahlil qilib ular haqida bir qancha maqola va dissertatsiyalar yaratganlar. Ushbu maqolada turk navoiyshunosligi haqida yurtimizda amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Turkiya, navoiyshunoslik, maqolalar, xorijiy navoiyshunoslik.

RESEARCH ON NAVOI'S STUDIES IN TURKEY

Abstract. Research on Alisher Navoi is being actively carried out in Turkey. Uzbek literary scholars have studied and analyzed these studies and created a number of articles and dissertations about them. This article analyzes the research conducted in our country on Turkish Navoi studies.

Keywords: Alisher Navoi, Turkey, Navoi studies, articles, foreign Navoi studies.

Buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy nafaqat o'z davrining, balki jahon adabiyoti va madaniyatining yuksak cho'qqilaridan biri hisoblanadi. Uning adabiy merosi, til va badiiyat borasidagi qarashlari, estetik dunyoqarashi hamda insonparvarlik g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda, ko'plab mamlakatlar, xususan, Turkiyada ham muntazam ravishda o'rganilib kelmoqda. Ayniqsa, turkiy xalqlarning umumiy tarixiy-madaniy ildizlari, til va adabiyotdagi o'xshashliklar Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqishning uzluksizligini ta'minlab bermoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston adabiyotshunosligida Alisher Navoiy hayoti va ijodining xorijda, xususan, Turkiya Respublikasida o'rganilishi bo'yicha qator ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar yaratilgan. Ushbu ilmiy izlanishlarda Navoiy merosining turkiy adabiyot taraqqiyotiga ta'siri, Turkiyada faoliyat yuritgan olimlarning Navoiyshunoslikka qo'shgan hissasi, tarjimalar va ilmiy-adabiy aloqalarning zamonaviy holati tahlil qilingan. Biroq mazkur tadqiqotlarning umumlashtirilgan tahlili, o'zbek adabiyotshunosligida bu borada erishilgan yutuqlar va istiqbolli yo'nalishlar haqida kompleks ilmiy xulosa va nazariy qarashlar hali yetarli darajada shakllanmagan.

Mazkur maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Asosiy e'tibor O'zbekistonda Alisher Navoiy ijodining Turkiyada o'rganilishi borasida yozilgan ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarni tahlil qilishga qaratiladi. Bu orqali O'zbekistonda shakllangan Navoiyshunoslik maktabining xorijdagi ilmiy-nazariy izlanishlarga ta'siri, shuningdek, ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy-madaniy hamkorlik darajasi aniqlanadi.

Maqolaning nazariy ahamiyati shundaki, u Alisher Navoiy ijodining xalqaro miqyosda o'rganilishi bo'yicha adabiyotshunoslikka oid ilmiy qarashlarning umumlashtirilgan tahlilini beradi, mavjud tadqiqotlar asosida yangi ilmiy xulosalar chiqarishga zamin yaratadi. Bu esa Navoiy merosini xalqaro Navoiyshunoslik doirasida tadqiq etishda nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Maqolaning amaliy ahamiyati esa Navoiy asarlarini turkiy xalqlar orasida keng targ'ib qilish, tarjimalar, ilmiy tadqiqotlar va akademik hamkorliklarni rivojlantirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, maqola O'zbekistonda yaratilgan ilmiy manbalarni tahlil qilish orqali, yangi avlod tadqiqotchilari uchun muhim ma'lumot manbai bo'la oladi.

Shu boisdan, ushbu tadqiqot o'zbek va turk adabiyotshunosligi o'rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlash, Alisher Navoiy merosining xalqaro miqyosdagi o'rganilishiga oid adabiy-nazariy qarashlarni boyitishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Turkiyada navoiyshunoslik tadqiqotlari Navoiy hayotligi chog'idayoq boshlangan bo'lib, XX asrga kelib bu borada jiddiy izlanishlar amalga oshirildi. So'ngi yillarda Ogoh Sirri Levend, Tanju Seyhan, Vahit Turk, Gunay Kut, Ayshexen Deniz Ebek, Sema Barutchu O'zo'nder, Metin Karao'rs, O'nal Kaya, Funda To'prak, Bulent Bayram, Zuhul O'lmez, Emek Ushenmaz, Fatma Achik, Huseyin Baydemir, Hatije To'ren, Erjan Petek, Sebahat Deniz kabi o'nlab turkiyalik navoiyshunos va turkolog olimlar Navoiy hayoti va ijodiga doir turli tadqiqotlar olib borganlar.

Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosining faol tadqiqotchisi va targ'ibotchisi professor Vohit Turkning 2021-yil "Türk Dunyasi Dil ve Edebiyat" jurnalida nashr qilingan "Türkiye'de Ali Şir Nevayi Çalışmaları" maqolasida ma'lumot berishicha¹, Turkiyada 2021-yilga qadar Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq olib borilgan tadqiqotlarning soni quyidagicha:

Magistrlik ishlari	26
Doktorlik dissertatsiyalari	18
Maqolalar	281
Ensiklopediya bo'limlari	11
Turkiy tillardan olingan maqolalar	19
Tarjima maqolalar	23
Tezislari	48
Kitoblar	51
Tabdil kitoblar	51
Tarjima kitoblar	2

Navoiy ijodining Turkiyada o'rganilishi masalasi tadqiqi bilan shug'ullangan R. Ruzmonovanning o'rganishlariga ko'ra, Turkiya universitetlarida doktorlik [222] va nomzodlik [220] ishlari, o'nlab ilmiy tadqiqotlar, turli konferensiyalarga taqdim qilingan bayonotlar, yuzlab maqolalardan tashkil topgan to'plamlar [150] gacha mavjud.

Raqamlardan ko'rinib turganidek, turk navoiyshunosligidagi ishlar salmog'i ancha katta. O'z navbatida bu tadqiqotlar o'zbek adabiyotshunoslari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Navoiyshunoslikning markazi va vatani O'zbekiston ekanligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, olimlarimiz bu tadqiqotlarni o'rganishi, ularning yutuq va kamchiliklarini aniqlashi, bu izlanishlarni o'zimizda amalga oshirilayotgan ishlar bilan muqoyasa qilgan holda zarur xulosa va takliflarni ishlab chiqishlari lozim.

¹ Türk V. (2021). Ali Sir Nevai Calismas Türkiye'de. Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi s. 52, 403-442b.

Bu boradagi ishlar allaqachon boshlangan bo‘lib, hozirgacha Turkiyada Navoiy hayoti va ijodining o‘rganilishiga doir o‘nlab maqola va bir nechta dissertatsiyalar e‘lon qilingan.

Quyida ular bilan tanishamiz:

Alisher Navoiy hayoti va ijodining Turkiyada o‘rganilishi tadqiq etilgan ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar ro‘yxati:

1. G‘anijon Abdurahmonovning 1966-yilda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida e‘lon qilingan “Turkiyada Navoiyshunoslik” maqolasi.²

G‘anijon Abdurahmonov 1966-yil 8-13-iyun kunlari Anqarada bo‘lib o‘tgan turk tilini o‘rganish jamiyatining XI kongressida qatnashadi va safar davomida Anqara, Istanbul va Konya shaharlaridagi universitet, ilmiy tashkilotlar, kutubxonalar va muzeylarda bo‘lib Turkiyadagi navoiyshunoslik haqida ko‘plab ma‘lumotlar yig‘gan va ushbu maqolani yozgan. Maqolada eng XVI asr boshlaridan to 1966-yilgacha Turkiyada amalga oshirilgan navoiyshunoslik borasidagi ishlar sanab o‘tilgan va chuqur tahlilga tortilgan. Maqola so‘ngida esa Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan Navoiy asarlari bibliografiyasi keltirib o‘tilgan.

2. Hayrulla Ismatullayevning 1968-yilda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida e‘lon qilingan “Navoiy ijodini xorijiy mamlakatlarda o‘rganishga doir” maqolasi.³

Ushbu maqola 2 qismdan iborat bo‘lib, 1-qism Navoiyning Yevropada o‘rganilishiga bag‘ishlangan. 2-qismda esa mashhur turk adabiyotshunos olimi Ogoh Sirri Levendning Navoiy tavalludining 525 yilligiga atab nashr ettirgan 4 jildli “Alisher Navoiy” asari haqida so‘z boradi. Maqolada asar boblari va qisqacha mazmuni sharhlab o‘tilgan. Shuningdek muallif kitobdagi yutuqlarni aytish barobarida, bir qancha xato va kamchiliklarni ham sanab o‘tgan

3. Hayrulla Ismatullayevning 1968-yilda “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida e‘lon qilingan “Navoiy ellarda va tillarda” maqolasi.⁴

Maqola 5 qismdan iborat bo‘lib qismlar “Rus tilida”, “Angliyada”, “Fransiyada”, “Turkiyada”, “Vengriyada” tarzida nomlangan. “Turkiya” qismida Fuod Ko‘prulu, Abduqodir Inon, Ali Tarlon, Ahmat Kafer o‘g‘li, Bosim Ataliy, To‘g‘no, Ogoh Sirri Levend kabi adabiyotshunoslarning Navoiy haqida yozgan maqola va kitoblari qisqa tarzda aytib o‘tilgan.

4. Ergash Umarovning 1966-yilda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida e‘lon qilingan “Turkiyalik Navoiyshunos” maqolasi.⁵

Ushbu maqolada mashhur turkolog olim Ogoh Sirri Levendning tarjimai holi va ilmiy faoliyati haqida ma‘lumot berilgan. Olimning navoiyshunoslik borasidagi xizmatlari e‘tirof etilib, bu borada amalga oshirgan ishlari batafsil sanab o‘tilgan.

5. Abduzohur Abduazizovning 1985-yil “Guliston” gazetasida e‘lon qilingan “Jahongashta alloma: Alisher Navoiy jahon adabiyoti sahifalarida” maqolasi.⁶

² Абдурахмонов Ғанижон. Туркияда навоийшunoslik // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1966. № 6. – Б. 33-37.

³ Исматуллаев Х. Навоий иждодини хорижий мамлакатларда ўрганишга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. № 5. – Б. 13-17.

⁴ Исматуллаев Х. Навоий элларда ва тилларда / Ўзбекистон маданияти. – Тошкент, 1968. 24 сентябрь.

⁵ Умаров Эргаш. Туркиялик навоийшunos // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. № 1. – Б. 59-60.

⁶ Абдуазизов Абдузхур. Жаҳонгашта аллома: Алишер Навоий жаҳон адабиёти саҳифаларида / Гулистон. 1985. № 4. – Б. 24.

Maqolada navoiyshunoslik borasida jahonda amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berilgan. Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Sabati abhur" asarlari haqida turk olimlari Ogoh Sirri Levend va Ahmad Otash tadqiqotlar olib borgani qisqa tarzda aytib ketilgan.

6. Sodir Erkinovning 1991-yil "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan "Taniqli navoiyshunos turk olimi" maqolasi.⁷

Ushbu maqolada Turkiyalik navoiyshunos olim Ogoh Sirri Levendning Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlab e'lon qilgan maqolalari va kitoblari haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada Turkiyadagi navoiyshunoslik tarixi haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.

7. Tohir Qahhorning 1991-yil "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan "Turkiyalik navoiyshunos" maqolasi.⁸

Maqolada Turkiyalik Professor Kamol Eraslanning hayoti va ijodi, uning Ahmad Yassaviy, Husayn Bayqaro, Kamron Mirzo va Alisher Navoiy haqidagi tadqiqotlari haqida ma'lumot berilgan.

8. Munavvar Murodullayevaning 2004-yil "Navoiyga armug'on" 4-kitobida e'lon qilingan "Muhokamat ul-lug'atayn" asari turkiyalik tadqiqotchi nazarida" maqolasi.⁹

Turk olimasi Fotima Sema Barutchu O'zonderning "Muhokamat ul-lug'atayn" asariga oid tadqiqotlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada "Muhokamat ul-lug'atayn"ning tarjimalari va nashrlari to'liq sanab o'tilgan.

9. Salohiy Diloromning 2006-yil "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan "Tarixi muluku ajam" asarining turkcha tarjimasi" maqolasi.¹⁰

"Tarixi muluku ajam" asarining turkcha tarjimalari va nashrlari haqida ma'lumot berilgan.

10. Hamidulla Boltayevning 2017-yil "Alisher Navoiy va XXI asr" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida e'lon qilingan "Majolis un-nafois"ning turk tazkirachiligiga ta'siri va Fransiyada biografik janrning shakllanishi" maqolasi.¹¹

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari ta'sirida paydo bo'lgan o'lab turk tazkiralari haqida so'z boradi. Olim maqolani yozish jarayonida bir necha o'rinda navoiyshunos turk olimlari fikrlaridan iqtiboslar keltirib o'tgan.

11. Ergash Ochilovning 2017-yil "Alisher Navoiy va XXI asr" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida e'lon qilingan "Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimalari" maqolasi.¹²

⁷ Эркинов Содир. Таниқли навоийшунос турк олими // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1991. № 4. – Б. 79.

⁸ Тохир Қахҳор. Туркиялик навоийшунос / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент, 1991. №39 (3143). 27 сентябрь. – Б. 4.

⁹ Муроудуллаева М. "Муҳокамат ул-луғатайн" асари туркиялик тадқиқотчи назарида / Навоийга армуғон. 4-китоб. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 156-159

¹⁰ Салоҳий Дилором. "Тарихи мулуки Ажам"нинг туркча таржимаси //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. № 3. – Б. 88-92.

¹¹ Болтабоев Ҳамидулла. "Мажолис ун-наfois"нинг турк тазкирачилигига таъсири ва Францияда биографик жанрнинг шаклланиши\ "Алишер Навоий ва XXI аср" мавзuidaги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: "Тамаддун", 2017. – Б. 137–141.

Mashaqqatli izlanishlarga asoslangan ushbu maqolada Navoiy asarlarining qachon qaysi tilga tarjima qilinganligi haqidagi deyarli barcha ma'lumotlar berilgan. Olimning ta'kidlashicha, Navoiyning turk tiliga tarjima qilingan 1-asari "Farhod va Shirin" bo'lib, bu tarjimani XVI asr usmonli turk shoiri Lomeiy amalga oshirgan. Maqolada aytilishicha, 2006-yilga kelib, Navoiyning barcha asarlari turkchaga tarjima qilingan. Olim ushbu tarjimonlarni va asarlarning nashr yillarini to'liq keltirib o'tgan.

12. Manzura Asqarovaning 2017-yil "Alisher Navoiy va XXI asr" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida e'lon qilingan "Yusuf Chetindog' – Alisher Navoiy tadqiqotchisi" nomli maqolasi.¹³

Maqolada Turkiyalik olim Yusuf Chetindog'ning Navoiy hayoti va ijodi borasida amalga oshirgan tadqiqotlari haqida so'z boradi. Muallif Yusuf Chetindog'ning maqola va kitoblarini shunchaki sanab qo'ymasdan, ularni atroflicha nazariy tahlil qilgan.

13. Abdumurod Tilavovning 2017-yil "Alisher Navoiy va XXI asr" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida e'lon qilingan "Alisher Navoiyning usmonli she'riyatiga ta'siri" maqolasi.¹⁴

2 sahifalik qisqa maqolada Navoiyning usmonli she'riyatiga ta'siri haqida so'z boradi. Muallif maqolada Ogoh Sirri Levend va Osman Sertkaya kabi turk olimlaridan iqtiboslar keltirgan.

14. Oysara Madaliyevaning 2018-yil "Alisher Navoiy va XXI asr" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida e'lon qilingan "Ogoh Sirri Levend – Alisher Navoiy asarlari fehxrestnavisi" maqolasi.¹⁵

Mashhur turk navoiyshunosi Ogoh Sirri Levendning ilmiy faoliyati haqida so'z boradi.

15. Aftondil Erkinovning 2018-yil "Alisher Navoiy va XXI asr" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida e'lon qilingan "Xazoyin ul-maoniy"ga ega "Muhabbatnoma" to'plami Ogoh Sirri Levend tasnifida" maqolasi.¹⁶

Turkiyadan topilgan "Muhabbatnoma" majmuasi haqida turkolog olim Ogoh Sirri Levend tadqiqotlari haqida so'z boradi.

16. Jo'liboy Eltazarovning 2019-yil "Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi III an'anaviy xalqaro konferensiya materiallarida e'lon qilingan "Alisher Navoiy ijodiy merosining Turkiya Respublikasida o'rganilishi haqida qaydlar" maqolasi.¹⁷

¹² Очилов Эргаш. Навоий асарларининг жаҳон тилларига таржималари \ "Алишер Навоий ва XXI аср" мавзuidaги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: "Тамаддун", 2017. – Б. 148–155.

¹³ Асқарова Манзура. Юсуф Четиндоғ – Алишер Навоий тадқиқотчиси \ "Алишер Навоий ва XXI аср" мавзuidaги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: "Тамаддун", 2017. – Б. 252–254.

¹⁴ Тилавов Абдумурод. Алишер Навоийнинг Усмонли шеъриятига таъсири \ "Алишер Навоий ва XXI аср" мавзuidaги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: "Тамаддун", 2017. – Б. 289–291.

¹⁵ Мадалиева Ойсара. Огаҳ Сирри Левенд – Алишер Навоий асарлари феҳрестнависи / "Алишер Навоий ва XXI аср": Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2018. – Б. 77-83.

¹⁶ Эркинов Афтондил. "Хазойин ул-маоний"га эга "Муҳаббатнома" тўплами Огаҳ Сирри Левенд тавсифида / "Алишер Навоий ва XXI аср": Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2018. – Б. 378-382.

¹⁷ Eltazarov J. "Alisher Navoiy ijodining Turkiya Respublikasida o'rganilishi haqida qaydlar" / "Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашариёт маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни" мавзусидаги III анъанавий

Turkiya navoiyshunosligi haqida ma'lumotlar berilgan. Maqolada bir nechta turk olimi va ularning ilmiy izlanishlari haqida so'z boradi.

17. A.Erdalning 2019-yil "Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi III an'anaviy xalqaro konferensiya materiallarida e'lon qilingan "Turkiyada navoiyshunoslik" maqolasi.¹⁸

Turkiyadagi navoiyshunoslik haqida ma'lumot berilgan.

18. Aftondil Erkinovning 2019-yil "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan "Navoiy ijodining xorijlik tadqiqotchilari" maqolasi.¹⁹

Ushbu maqolada germaniyalik Zigrid Klaynmixel, turkiyalik Ganji Seyhan, Vengriyalik Benedek Peri va fransiyalik Doktor Mark Toutantlarning navoiyshunoslik borasida amalga oshirgan ishlari haqida ma'lumot berilgan. Turkiyalik olim Ganji Seyhan Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni va "Siroj ul-muslimin" asarlari ustida tadqiqotlar olib borgan va kitoblar nashr ettirgani aytib o'tilgan.

19. Aftondil Erkinovning 2019-yil "Alisher Navoiy va XXI asr" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida e'lon qilingan "Alisher Navoiy Turkiya qo'lyozmalari katalogini yaratish tajribasidan" maqolasi.²⁰

Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan Alisher Navoiy qo'lyozma asarlari katalogi haqida ma'lumot berilgan.

20. Aftondil Erkinovning 2020-yil kun.uz internet saytida e'lon qilingan "Istanbulda Navoiyning ilk rasmiy devoni yangi nusxasi aniqlandi" maqolasi.²¹

Alisher Navoiy qalamiga mansub "Badoye ul-bidoya" devonining Turkiyada saqlanayotgan 6-nusxasining topishi haqida so'z boradi. Ma'lum bo'lishicha, qo'lyozma Navoiy hayotligi davrida mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan.

21. Dilnavoz Yusupovning 2020-yil "Temuriylar davrida yaratilgan "Xamsa"larning komparativistik tadqiqi va ularning Sharq adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni" xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallarida e'lon qilingan "Usmonli turklar xamsanavisligida Abdurahmon Jomiy an'analari" maqolasi.²²

Ushbu maqolada Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sining usmonli turklar xamsanavisligiga ta'siri haqida ma'lumot berilishi barobarida, Navoiy "Xamsa"si haqida ham so'z boradi.

халқаро конференция материаллари (2019 йил 4-6 февраль, Ўзбекистон, Навоий ш.). Тошкент: Фан, 2019, 351-355-б.

¹⁸ Erdal A. "Turkiyada navoiyshunoslik" // "Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni": халқаро конференция материаллари. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 343-347.

¹⁹ Эркинов Афтондил. Навоий ижодининг хорижлик тадқиқотчилари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2019, №2. – Б. 37-38.

²⁰ Эркинов Афтондил. "Alisher Navoiy Turkiya qo'lyozmalari katalogini yaratish tajribasidan" // "Alisher Navoiy va XXI asr": Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 411-412.

²¹ Эркинов Афтондил. "Istanbulda Navoiyning ilk rasmiy devoni yangi nusxasi aniqlandi". 15.01.2020 (<https://kun.uz/news/2020/01/15/istanbulda-navoiyning-ilk-rasmiy-devoni-yangi-nusxasi-aniqlandi>)

²² Юсупова Дилнавоз. Усмонли турklar хамсанавислигида Абдурахмон Жомий аънавлари / "Темурийлар даврида яратилган "Хамса"ларнинг компаративистик тадқиқи ва уларнинг Шарқ адабиёти тараққиётидаги ўрни": халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. СамДУ нашри, 2020. – Б. 106-112.

22. Aftondil Erkinovning 2021-yil “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” 30 jildlik to‘plamining 19-jildida e‘lon qilingan “Xorijiy navoiyshunoslik” maqolasi.²³

Qisqagina ushbu maqolada xorijdagi navoiyshunos olimlar shunchaki sanab o‘tilgan. Xususan, maqolada Mehmed Fuat Ko‘prulu, Zaki Validi To‘g‘on, Kemal Eraslan, Osman Sertkaya, Tanju Seyhan, Vahid Turk, Ayshehan Deniz Abik kabi Turkiyalik navoiyshunos olimlar nomi tilga olingan.

23. Abdumurod Tilavovning 2022-yil “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallarida e‘lon qilingan “Alisher Navoiy xorijlik olimlar nigohida” (Turkiyalik olima professor doktor Funda Toprakning “Tasavvufiy va adabiy tomonlari bilan Alisher Navoiy” tadqiqoti haqida) maqolasi.²⁴

Ushbu maqolada Turkiyalik olima professor doktor Funda Toprakning “Tasavvufiy va adabiy tomonlari bilan Alisher Navoiy” nomli monografiyasining mazmun-mundarijasi, navoiyshunoslikdagi ahamiyati haqida ma‘lumot berilgan.

24. Shahzodbek Ruzmetovning 2022-yil “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallarida e‘lon qilingan “Alisher Navoiy ijodining Usmonli turk adabiyotiga ta’siri” (Lamii Chelebiy misolida) maqolasi.²⁵

Maqolada XVI asrda yashagan va Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini turk tiliga tarjima qilgan Lamii Chelebiy hayoti hamda ijodi haqida so‘z boradi.

25. Nozliya Normurodovaning 2023-yil “Alisher Navoiy va XXI asr” uluslararo konferensiya materiallarida e‘lon qilingan “Alisher Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimalari haqida” maqolasi.²⁶

Maqolada Navoiy asarlarining turli tillarga qilingan tarjimalari tadriijid tarzda sanab o‘tilgan. Shuningdek, Navoiy asarlarining turk tiliga o‘girilishi va tarjimonlar haqida ham ma‘lumot berilgan.

26. Abdumurod Tilavovning 2024-yil “Alisher Navoiy va XXI asr” uluslararo konferensiya materiallarida e‘lon qilingan “Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari turkiyalik navoiyshunos Vohid Turk talqinida” maqolasi.²⁷

Ushbu maqolada “Mahbub ul-qulub” asarining turkiyalik navoiyshunos Vohid Turk tomonidan amalga oshirilgan tarjimasini, olimning ushbu asarni turk o‘quvchilariga yetkazishdagi usuli, yutuq, tajribalari haqida so‘z boradi.

²³ Эркинов Афтондил. Хорижий навоийшунослик// Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик, 19-жилд. — Тошкент: "Тамаддун", 2021. – Б.315-325

²⁴ Tilavov Abdumurod. Alisher Navoiy xorijlik olimlar nigohida (Turkiyalik olima professor doktor Funda Toprakning “Tasavvufiy va adabiy tomonlari bilan Alisher Navoiy” tadqiqoti haqida) // “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 360-363.

²⁵ Ruzmetov Shahzodbek. Alisher Navoiy ijodining Usmonli turk adabiyotiga ta’siri (Lamii Chelebiy misolida) // “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022. – B.550-553

²⁶ Normurodova Nozliya. Alisher Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimalari haqida// “Alisher Navoiy va XXI asr” uluslararo konferensiya materiallari. – Toshkent-Boku, 2023. – B. 59-63.

²⁷ Abdumurod Tilavov. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari turkiyalik navoiyshunos Vohid Turk talqinida// “Alisher Navoiy va XXI asr” uluslararo konferensiya materiallari. – Toshkent-Bursa, 2024. – B. 539-543.

27. Madina Ashirmatova va Barno Xojimatovalarning 2024-yil “Alisher Navoiy va XXI asr” uluslararo konferensiya materiallarida e’lon qilingan “Alisher Navoiy asarlarining Turkiya adabiyoti va adabiyotshunosligiga ta’siri” maqolasi.²⁸

Maqolada Navoiy ijodining turk adabiyotiga ta’siri misollar va mulohazalar yordamida tahlil qilingan.

28. Nodirxon Hasanning 2024-yil “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to’plamida e’lon qilingan “Navoiy ijodiyotining Turkiyada o’rganilishiga doir” maqolasi.²⁹

Chuqur tahlil va dalillarga asoslangan ushbu maqolada Turkiyada XX-XXI asrlarda navoiyshunoslik borasida amalga oshirilgan deyarli barcha izlanishlar sanab o’tilgan. Muallif maqolani yozish davomida turk olimlarining 100 dan ortiq maqola, dissertatsiya va kitoblaridan foydalangan.

29. Sanobar To’laganovanning 2024-yil “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to’plamida e’lon qilingan “Turkistonda turk mafkurasi va Alisher Navoiy” maqolasi.³⁰

Maqolada turk olimi Tohir Shokirning turk mafkurasi shakllanishida Alisher Navoiyning o’rni masalasiga bag’ishlangan kuzatishlari o’rganilgan.

30. Zulayho Abdurahmonning 2024-yil “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to’plamida e’lon qilingan “Abdurahmon Go’zal – Navoiy ijodiyoti tadqiqotchisi va targ’ibotchisi” maqolasi.³¹

Ushbu maqolada turk olimi Abdurahmon Go’zal sa’y-harakatlari bilan tashkil etilgan “Bashkent universiteti Alisher Navoiy tadqiqot va targ’ibot markazi” va bu markazning maqsad, vazifalari, Abdurahmon Go’zalning navoiyshunos sifatidagi faoliyati tahlil qilingan.

31. R.U.Ruzmanovanning 2024-yil “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to’plamida e’lon qilingan “Alisher Navoiy asarlarining jahon adabiyotshunosligidagi tadqiqi” maqolasi.³²

Ushbu maqolada Navoiyning usmonli turk adabiyotiga ta’siri, Turkiyaga yuborgan g’azallari va ularga yozilgan naziralar hamda bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida so’z boradi.

Adabiyotshunosligimizda aynan Navoiy ijodining Turkiyada o’rganilishiga bag’ishlangan dissertatsiyalar yo’q. Ammo ba’zi ilmiy ishlarning ma’lum fasl yoki boblari ushbu mavzuga qaratilgan.

²⁸ Ashirmatova Madina, Xojimatova Barno. Alisher Navoiy asarlarining Turkiya adabiyoti va adabiyotshunosligiga ta’siri// “Alisher Navoiy va XXI asr” uluslararo konferensiya materiallari. – Toshkent-Bursa, 2024. – B. 596-599.

²⁹ Нодирхон Ҳасан. Навоий ижодиётининг Туркияда ўрганилишига доир// “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to’plami. – Toshkent, 2024. -B.100-110

³⁰ Санобар Тўлаганова. Туркистонда турк мафкуриси ва Алишер Навоий // “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to’plami. – Toshkent, 2024. -B. 201-205

³¹ Zulayho Abdurahmon. Abdurahmon Go’zal Navoiy ijodiyoti tadqiqotchisi va targ’ibotchisi// “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to’plami. – Toshkent, 2024. -B. 354-359

³² R.U.Ruzmanova. Alisher Navoiy asarlarining jahon adabiyotshunosligidagi tadqiqi// “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to’plami. – Toshkent, 2024. -B. 460-467

Roʻzmonova Rohila Usmonovnaning 2011-yilda himoya qilingan “Alisher Navoiy anʼanalarining Usmonli Turk sheʼriyatiga taʼsiri” (Ahmad Posho va Saydi Ali Rais Kotibiy ijodi misolida)³³ dissertatsiyasini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek adabiyotshunoslari tomonidan Turkiya navoiyshunosligi mavzusidagi izlanishlar 1966-yildan boshlab amalga oshirilgan boʻlib, hozirgi kungacha muayyan ilmiy baza shakllangan.

Ammo mavjud maqolalarning aksariyatida Turkiyadagi navoiyshunoslikka oid umumiy maʼlumotlar, yaʼni u yoki bu turk olimining Navoiy haqida qanday maqola yoki kitob yozgani sanab oʻtilgan, xolos. Bu asarlar tahlil qilingan, lekin nazariy yondashuvlar, metodologik asoslar, oʻzbek navoiyshunosligi bilan solishtirma tahlil kabi chuqur ilmiy ishlovlar yetarli darajada mavjud emas. Aynan shu jihat mavzuning nazariy chuqurlashtirilishi va yangi izlanishlar zarurligini koʻrsatadi.

Ushbu maqolaning xulosalari shuni koʻrsatadiki, Alisher Navoiy merosining Turkiyada oʻrganilishi boʻyicha olib borilgan ilmiy ishlarga sistematik va nazariy yondashuv zarur. Bu boradagi izlanishlarni chuqurlashtirish, oʻzbek va turk olimlari oʻrtasida mustahkam ilmiy hamkorlik oʻrnatish zamon talabi hisoblanadi. Ayniqsa, Navoiy ijodining turkiy xalqlar adabiy tafakkuriga taʼsiri, til, obrazlar tizimi, tasavvufiy dunyoqarashlar doirasida yondashuvlar oʻrtasidagi oʻxshash va farqli jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilish kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim yoʻnalish boʻlib qoladi.

Kelajakda Turkiyadagi navoiyshunoslikni tadqiqi uchun quyidagilarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq boʻlar edi:

Turkiyadagi Navoiyshunoslik manbalarining nazariy tahlili yoʻlga qoʻyilishi lozim, yaʼni faqatgina bibliografik maʼlumotlar emas, balki ularning mazmun-mohiyatini oʻzbek navoiyshunosligi bilan solishtirib izohlash talab etiladi.

Turkiya olimlari tomonidan yozilgan asarlarning oʻzbek tiliga tarjima qilinib, sharhlanishi va adabiyotshunoslik doirasida muhokama qilinishi foydali boʻladi.

Oʻzbekiston va Turkiya navoiyshunos olimlari oʻrtasida qoʻshma ilmiy tadqiqot loyihalari, konferensiyalar va dissertatsion mavzular yoʻlga qoʻyilishi zarur.

Turkiyadagi arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan Navoiyga oid manbalarni (tarjimalar, tadqiqotlar, qoʻlyozmalar) tizimli ravishda oʻrganish ishlari tashkil etilishi kerak.

Yangi avlod tadqiqotchilari uchun “Turkiyada Navoiyshunoslik” mavzusida ixtisoslashgan ilmiy maktab yoki yoʻnalishlar tashkil qilish, bu boradagi izlanishlarni tizimli tarzda davom ettirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Абдурахмонов Фанижон. Туркияда навоийшунослик // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1966. № 6. – Б. 33-37.
2. Исмадуллаев Х. Навоий иждодини хорижий мамлакатларда ўрганишга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. № 5. – Б. 13-17.

³³ Рўзмонова, Роҳила Усмоновна. Алишер Навоий аъналарининг Усмонли Турк шеъриятига таъсири (Ахмад Пошо ва сайди Али Раис Котибий ижоди мисолида)-2011

3. Исматуллаев Ҳ. Навоий элларда ва тилларда / Ўзбекистон маданияти. –Тошкент, 1968. 24 сентябрь.
4. Умаров Эргаш. Туркиялик навоийшунос // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. № 1. – Б. 59-60.
5. Абдуазизов Абдузхур. Жаҳонгашта аллома: Алишер Навоий жаҳон адабиёти саҳифаларида / Гулистон. 1985. № 4. –Б. 24.
6. Эркинов Содир. Таниқли навоийшунос турк олими // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1991. № 4. – Б. 79.
7. Тохир Қаҳҳор. Туркиялик навоийшунос / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1991. №39 (3143). 27 сентябрь. – Б. 4.
8. Муродуллаева М. “Муҳокамат ул-луғатайн” асари туркиялик тадқиқотчи назарида / Навоийга армуғон. 4-китоб. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 156-159.
9. Салоҳий Дилором. “Тарихи мулуки Ажам”нинг туркча таржимаси //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. № 3. – Б. 88-92.
10. Рўзмонова, Роҳила Усмоновна. Алишер Навоий анъаналарининг Усмонли Турк шеърлятига таъсири (Аҳмад Пошо ва сайди Али Раис Котибий ижоди мисолида)-2011
11. Болтабоев Ҳамидулла. “Мажолис ун-нафоис”нинг турк тазкирачилигига таъсири ва Францияда биографик жанрнинг шаклланиши\\ “Алишер Навоий ва XX1 аср” мавзуидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: “Тамаддун”, 2017. – Б. 137–141.
12. Очилов Эргаш. Навоий асарларининг жаҳон тилларига таржималари \\ “Алишер Навоий ва XX1 аср” мавзуидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: “Тамаддун”, 2017. – Б. 148–155.
13. Асқарова Манзура. Юсуф Четиндоғ – Алишер Навоий тадқиқотчиси\\ “Алишер Навоий ва XX1 аср” мавзуидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: “Тамаддун”, 2017. – Б. 252–254.
14. Тилавов Абдумурод. Алишер Навоийнинг Усмонли шеърлятига таъсири\\ “Алишер Навоий ва XX1 аср” мавзуидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: “Тамаддун”, 2017. – Б. 289–291.
15. Akram Gulandom. Navoiy ijodi xorijliklar nigohida // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2018. №12. – В. 44-45.
16. Мадалиева Ойсара. Огаҳ Сирри Левенд – Алишер Навоий асарлари феҳрестнависи / “Алишер Навоий ва XXI аср”: Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2018. – Б. 77-83.
17. Эркинов Афтондил. “Хазойин ул-маоний”га эга “Муҳаббатнома” тўплами Огаҳ Сирри Левенд тавсифида / “Алишер Навоий ва XXI аср”: Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2018. – Б. 378-382.
18. Eltazarov J. “Alisher Navoiy ijodining Turkiya Respublikasida o‘rganilishi haqida qaydlar” / “Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” мавзусидаги III анъанавий халқаро конференция

- материаллари (2019 йил 4-6 февраль, Ўзбекистон, Навоий ш.). Тошкент: Фан, 2019, 351-355-б.
19. Erdal A. “Turkiyada navoiyshunoslik” // “Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни”: халқаро конференция материаллари. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 343-347.
 20. Эркинов Афтондил. Навоий ижодининг хорижлик тадқиқотчилари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2019, №2. – Б. 37-38.
 21. Эркинов Афтондил. “Алишер Навоий Туркия қўлёзмалари каталогини яратиш тажрибасидан” // “Алишер Навоий ва XXI аср”: Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 411-412.
 22. Эркинов Афтондил. “Истанбулда Навоийнинг ilk расмий девони янги нусхаси аниқланди”. 15.01.2020 (<https://kun.uz/news/2020/01/15/istanbulda-navoiyning-ilk-rasmiy-devoni-yangi-nusxasi-aniqlandi>)
 23. Эркинов Афтондил. “Алишер Навоий девонларининг аниқланган янги нусхалари (2010–2020 йиллар)” / Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари: Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган, 2020. – Б. 88-96.
 24. Юсупова Дилнавоз. Усмонли турклар хамсанавислигида Абдурахмон Жомий анъаналари / “Темурийлар даврида яратилган “Хамса”ларнинг компаративистик тадқиқи ва уларнинг Шарқ адабиёти тараққиётидаги ўрни”: халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. СамДУ нашри, 2020. – Б. 106-112.
 25. Эркинов Афтондил. Хорижий навоийшунослик// Истиклол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик, 19-жилд. — Тошкент: "Тамаддун", 2021. – Б.315-325
 26. Türk V. (2021). Ali Sir Nevai Calismas Türkiye'de. Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi s. 52, 403-442b.
 27. Tilavov Abdumurod. Alisher Navoiy xorijlik olimlar nigohida (Turkiyalik olima professor doktor Funda Toprakning “Tasavvufiy va adabiy tomonlari bilan Alisher Navoiy” tadqiqoti haqida) // “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 360-363.
 28. Ruzmetov Shahzodbek. Alisher Navoiy ijodining Usmonli turk adabiyotiga ta'siri (Lamii Chelebiy misolida) // “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022. – B.550-553
 29. Normurodova Nozliya. Alisher Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimalari haqida// “Alisher Navoiy va XXI asr” uluslararo konferensiya materiallari. – Toshkent-Boku, 2023. – B. 59-63.
 30. Abdumurod Tilavov. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari turkiyalik navoiyshunos Vohid Turk talqinida// “Alisher Navoiy va XXI asr” uluslararo konferensiya materiallari. – Toshkent-Bursa, 2024. – B. 539-543.
 31. Ashirmatova Madina, Xojimatova Barno. Alisher Navoiy asarlarining Turkiya adabiyoti va adabiyotshunosligiga ta'siri// “Alisher Navoiy va XXI asr” uluslararo konferensiya materiallari. – Toshkent-Bursa, 2024. – B. 596-599.

32. Нодирхон Ҳасан. Навоий ижодиётининг Туркияда ўрганилишига доир// “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent,2024.-B.100-110
33. Санобар Тўлаганова. Туркистонда турк мафкуриси ва Алишер Навоий // “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2024. -B. 201-205
34. Zulayho Abdurahmon. Abdurahmon Go‘zal Navoiy ijodiyoti tadqiqotchisi va targ‘ibotchisi// “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2024. -B. 354-359
35. R.U.Ruzmanova. Alisher Navoiy asarlarining jahon adabiyotshunosligidagi tadqiqi// “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2024.-B. 460-467